

**Andijon davlat tibbiyot instituti**  
**Vrachlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti**  
**jarrohlik kafedrası, endoxirurgiya kafedrası**



**Kafedra mudiri: tibbiyot fanlari nomzodi,  
dotsent**

**RAHMONOV BAHODIR  
JAFFARALIYEVICH**

**Ish vaqti: 8<sup>00</sup> – 17<sup>00</sup>**

**Tel.: +99874-237-10-35**

**e-mail: endoxirurgiya@umail.uz**

**VRACHLAR MALAKASINI OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH  
FAKULTETI JARROHLIK KAFEDRASII, ENDOXIRURGIYA KURSI  
TARIXI VA FAOLIYATI**

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati hamkorligida "O'zbekistonda zamonaviy yuqori texnologik tibbiy asbob-uskunalarda ishlovchi tibbiy va texnik xodimlarning malakasini oshirish" loyihasi doirasida 2016-yil 11 oktabrda Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasi bazasida "Endoxirurgiya" o'quv markazi tashkil etilgan. Institut rektorining 2016-yil 16 dekabrda 343-T buyrug'i bilan o'quv markazida vrachlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakultetining jarrohlik kafedrası tarkibida "Endoxirurgiya kursi" tashkil etilgan. Jarrohlik kafedrasining endoxirurgiya

kursida laparoskopik xirurglar va umumiy xirurglarning kasbiy malakasi oshiriladi.

O'quv markazida ma'ruzalar zali, simulyatsion amaliy ko'nikmalar xonasi tashkil etilgan va zamonaviy asbob-uskunalar hamda o'quv jihozlari bilan jihozlangan. Amaliy ko'nikmalarni bajarishga mo'ljallangan endoxirurgik boks-trenajer, organokompleksli endovideoxirurgik simulyator, endoxirurgik asbob-uskunalar, 55 va 32 diagonalli 2 ta LED televizorlar, multimedia proyektor, noutbuk, kompyuter va yordamchi uskunalar shular jumlasidandir.

Ma'ruzalar zali laparoskopik xirurgiya bo'limining tashrix xonasi bilan telealoqa vositasida bog'langan. Tinglovchilar uchun tashrix jarayonini ma'ruza zalida kuzatish, jarrohga savollar berish va javob olish imkoniyatlari yaratilgan. Undan tashqari tinglovchilar mavzuga oid taqdimotlar va videofilmlar ko'rish imkoniyatiga ega. Simulyatsion amaliy ko'nikmalar xonasida endoxirurgik amaliy ko'nikmalarni bajarishga oid videodarslarni ko'rish, undan so'ng ularni bevosita trenajer va simulyatorlarda bajarish imkoniyati mavjud.

Endoxirurgiya kursida vrachlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakultetining o'quv ishlab chiqarish rejasiga asosan Laparoskopik xolesistektomiya; O'tkir appenditsitda endoxirurgik aralashuv; Laparoskopik xirurgiyada asoralar; Shoshilinch xirurgiyada diagnostik va davolovchi laparoskopiya va Endoxirurgiyaning dolzarb masalalari mavzularida malaka oshirish sikllari tashkil etilgan.



#### **Endoxirurgiya kursi professor-o'qituvchilarining ro'yxati**

<b>№</b>	<b>F.I.Sh.</b>	<b>Ilmiy darajasi va lavozimi</b>
<b>1.</b>	<b>Rahmonov Bahodir Jaffaraliyevich</b>	<i>Kurs mas'uli, t.f.n., dotsent</i>
<b>2.</b>	<b>Qurbonov Shuhrat Parpiboyevich</b>	<i>t.f.n., assistent</i>

3. **Nosirov Muzaffar Madaminovich**

*assistant*

**Ma'ruzalar xonasi**



## Amaliy ko'nikmalar xonasi

